

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentini Islom Abdug'anievich Karimovni hotirlab...

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentini Islom Karimovni hotirlab "Gidromelioratsiya" fakulteti tyutiri D.Axrorova va 2 kurs 207-guruh talabalari uning haykali poyiga gul qo'yib, u kishining tug'ilgan kunlari munosabati bilan, vatanimizning mustaqil bo'lishida dadil qo'yilgan ilk qadamning natijasi va u kishi prezidentlik davrida amalga oshirgan ishlari hotirlandi.

Agar u kishi hayot bo'lganda bugun 85 yoshni qarshilagan bo'lardilar. Islom Abdug'anievich Karimov 1938 yilning 30 yanvarida Samarqand shahrida oddiy xizmatchi oilasida tavallud topdi. Uning oilasida har kungi og'ir mehnat yashash uchun pul topishning yagona usuli edi.

Islom Karimov 1945 yilda Samarqanddagi A.S.Pushkin nomidagi 21-maktabga o'qishga kirib, uni oltin medal bilan tamomladi. O'quvchilik yillari mobaynida ko'p adabiyotlarni, ayniqsa, tarix bo'yicha adabiyotlarni o'qidi. U aniq fanlarni yoqtirardi, shaxmatga, modellashtirish va stol tennisiga qiziqardi.

1955 yilda Islom Abdug'anievich O'rta Osiyo politexnika institutiga o'qishga kirdi. 1960 yilda uni tamomlab va "muhandis-mexanik" mutaxassisligi bo'yicha diplom olib, "Toshsel'mash" zavodida o'z mehnat faoliyatini boshladi va qisqa davr ichida usta yordamchisi, usta va texnolog kabi lavozimlarda ishlashga ulgurdi. Bu zavod qishloq xo'jaligi texnikasining har xil turlarini, shu jumladan paxta terish mashinalarini ishlab chiqarardi. Ular O'zbekiston va boshqa respublikalar dehqonlarining mehnatini yengillashtirardi, shuningdek, boshqa mamlakatlarga eksport qilinardi. Islom Abdug'anievich uchun bularning barchasini vujudida his qilish, ishlab chiqarishda tajriba orttirish, zavod hayotining "murakkab" va "ijobiy" tomonlarini ko'rish muhim edi.

Yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari B.To'ycheev

